

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akintoye, A., & Kumaraswamy, M. *Public Private Partnerships: A Global Review* Springer, 2024, p. 33–88
2. Delmon J. *Public Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide (Updated Ed.)* Cambridge University Press, 2024, p: 50-135.
3. Yunusova S. *Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish: i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2022. – 15 b.*
4. Xalilova Sh. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish: i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – Toshkent, 2022. – 14 b.*

HUDUDLAR MOLIYAVIY RIVOJLANISHIDA TURIZMNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI

Safarov Manuchexr Axtam o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Turizmni hududlarning moliyaviy rivojlanishi bilan bog'lashda eng muhim jihatlardan biri investitsiyalarni jalb qilishdir. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda investitsiya jarayonlari faollashib, turli infratuzilma obyektlarini barpo etish uchun kapital qo'yilmalar hajmi ortadi. Xususan, mehmonxonalar, mehmon uylari va boshqa joylashtirish vositalarini qurish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, dam olish va rekreatsiya maskanlarini tashkil etish turizm sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar. Investitsiya, turizm, mehmon uylari, jahon iqtisodiyoti, talab va taklif, eksport, turfirmalar, xaridor bozori, moliyaviy barqarorlik, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, turizm industriyasi.

So'nggi o'n yilliklar jahon turizmining global rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu dunyodagi ilmiy-texnik taraqqiyot natijasi bo'lib, xalqaro aloqalarning chuqurlashishiga, transport tashuvlarining sezilarli darajada tezlashishi va arzonlashishiga, dam olish zonalarida yashash qulayligining oshishiga olib keldi. Bularning barchasi jahon iqtisodiyotida turizmning rolini oshishiga olib keldi.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish jarayonida xususiy sektorning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy investitsiyalar turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi turistik mahsulotlarni yaratish hamda hududning turistik jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada hudud iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslar kirib keladi, kapital aylanishi tezlashadi va hududning umumiy moliyaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, ushbu obyekt yaxlitligicha yetarli chuqur o'rganilmagan. Ushbu mexanizm turizm tarmog'ining subyektlari o'rtasida, makro va mikro-iqtisodiy komponentlarni qo'shgan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. "Rivojlantirish" terminini kiritish ushbu mexanizmning nazariy hamda amaliy yo'nalganligini anglatadi, chunki ichki turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqa bir qator vazifalarni hal qilishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadlari turistik

faoliyat muhitining tashqi va ichki omillarga bog'liq. Ichki turizmning tashqi muhit omillari zamonaviy, shiddat bilan o'zgarayotgan iqtisodiy muhitda o'zgarib turganligi sababli, bu tashkiliy-iqtisodiy mexanizm uni boshqa muayyan maqsadlardan ajratib turuvchi bir qator tizimli xususiyatlarga ega. Turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun uning tarkibiy tuzilishini, evolyutsiyasi bosqichlarini, zamonaviy turizmni boshqa mamlakatlarda tashkil etish xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganish lozim bo'ladi. Shu bois respublikamizdagi tadqiqotchi olimlar tomonidan ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilayotganligi, ularning natijalari islohotlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim [1].

Hozirgi kunda turizm sanoati murakkab tuzilishga ega bo'lib, turizm fenomenini va turistik destinatsiyalarni mehnat taqsimotini hisobga olmasdan turib ilmiy jihatdan o'rganish mushkul. Birinchidan, turizm xizmat ko'rsatish sohasi sifatida ishlab chiqarish tarmoqlaridan keyin, XIX asrdagi sanoatlashgan jamiyatida vujudga kelgan. Ikkinchidan, iqtisodiyotning ba'zi sohalarida alohida tarmoqlar ajralib chiqishi ro'y berayotgan bir vaqtda, turizm ko'pgina tarmoqlarning xizmatlarini o'zida jamlash orqali o'ziga xos soha sifatida shakllanib ulgurdi. Uchinchidan, u bir qator tarmoqlar xizmatlarini – transport, joylashtirish, ovqatlantirish, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish, turistik faoliyatlarni umumiy mehnat faoliyati shaklida jamlanishiga olib keldi. Ushbu faoliyatlarning ba'zilari turli tarixiy davrlardan buyon davom etib kelmoqda, jumladan zamonaviy joylashtirish vositalari xizmatlari qadimiy sivilizatsiyalarda ham mavjud bo'lgan. [2]

Ichki turizmni rivojlantirish bir vaqtni o'zida o'ziga xos dam olish, ko'ngilochar maskanlar industriyasini o'z ichiga oladi. Turizmda asosiy xizmatlar qo'shimcha xizmatlar mavjud bo'lib asosiy xizmatlarga:

-kutib olish xizmatlari; -joylashtirish xizmatlari; -umumiy ovqatlanish xizmatlari; -transport xizmatlari; -ekskursiya xizmatlariga bo'linadi.

Har bir xizmat infrastrukturasi mukammal shakllanganda turistlarda muammolar kuzatilmaydi. Yana qo'shimcha xizmatlar mavjud, ular ham jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kutib olish xizmatlariga demak masofalardan turib ishlash tushiniladi. Turfirmadan ma'sul xodim turistni kutib olishga aeroportga borishi yo'l infratuzilmasini, aeroport infratuzilmasini va transport infratuzilmasini xalqaro va ichki standartlarga javob berishini talab qiladi [7]. Quyidagi besh jihat turizmni rivojlantirishda misol bo'la oladi:

qonun jihatidan ta'minlash (turistik faoliyatning normal borishiga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish); - infratuzilma jihatidan ta'minlash (tarixiy-madaniy turizmni tashkil etish uchun umumiy sharoitlarni yaratuvchi va ta'minlovchi moddiy-texnik elementlarning mavjud bo'lishi); -moliyaviy ta'minlash (investitsiya manbalarini aniqlash va madaniy turizm sohasida qulay investitsiya iqlimini yaratish); - axborot ta'minoti (madaniy turizmni tashkil etish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistlarni axborot bilan ta'minlash); - kadrlar bilan ta'minlash (sifatli turistik xizmatlar ko'rsatishga layoqatli bo'lgan malakali oliy, o'rta va quyi bo'g'in xodimlarini o'z vaqtida va doimiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash).

Respublikamizda turizmning asosiy tarkibi va shakli bo'lgan ichki turizmdagi faoliyat kompleks rejalashtirilishi, yo'naltirilishi, muvofiqlashtirilishi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining elementlari qamrab olinishi zarur. Bu yo'nalishlarning har biri tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Turizmni rivojlantirish hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, ayniqsa mahalliy byudjet daromadlarini oshirishda muhim

rol o'ynaydi. Turizm faoliyati kengaygan sari xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanadi va bu jarayon turli soliq tushumlari orqali hududiy moliyaviy tizimga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, mehmonxonalar va joylashtirish vositalaridan olinadigan soliqlar, turistik xizmatlar ko'rsatish jarayonida shakllanadigan xizmat ko'rsatish soliqlari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining faoliyatidan tushadigan soliqlar hamda turistik yig'imga mahalliy byudjet daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Hududlarda turizmni rivojlantirishning muhim moliyaviy jihatlaridan biri xorijiy turistlar oqimini jalb qilish orqali valyuta tushumlarini oshirish hisoblanadi. Xorijiy sayyohlar tomonidan turli xizmatlar uchun sarflanadigan mablag'lar mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha valyuta kirib kelishini ta'minlaydi. Bunday jarayon turizm xizmatlarini eksport qilish shakli sifatida namoyon bo'ladi, chunki turistlar hududga kelib mehmonxona, transport, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan foydalanadi. Natijada turizm orqali xizmatlar eksporti hajmi ortadi va turizm balansining ijobiylashuvi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning to'lov balansi barqarorligini mustahkamlashga hamda milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [8].

Turizmning rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, turistik talabga ta'sir etuvchi omillar belgilovchi hisoblanadi, chunki turistik bozor "xaridor bozori" hisoblanadi. Aynan talabning o'zgarishi orqali iste'molchi turistik bozor mutanosibli va turistik xizmatlar sifatining obyektiv va subyektiv tartibga soluvchisi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, inson dam olish va turizm sohasida sifat jihatidan yangi, istiqbolli ehtiyojlarning tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi, ular moddiy, ma'naviy, ijtimoiy bo'lishi mumkin. U o'zining bu ko'rinishida fan-texnika taraqqiyotini boshlab beradi, uni kengaytiradi, boyitadi - tushunishni, uning zarurligini shart qilib qo'yadi, uning ustuvorligini tartibga soladi. Nihoyat, u iqtisodiy (takror ishlab chiqarish) munosabatlar, manfaatlar, rag'batlar tashuvchisi, turizm industriyasini rivojlantirishda inson omili rolini oshirish mexanizmida "faol subyekt" hisoblanadi [9].

Shunday qilib, turizm milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi, bugungi kunda turizm umumjahon taraqqiyotining noyob hodisasidir. Iqtisodiyotning boshqa hech bir tarmog'i turizm kabi o'sish, daromad olish va aholini ishlab chiqarishga jalb qilish uchun katta salohiyatga ega emasligi allaqachon isbotlangan va jahon statistikasi tomonidan tasdiqlangan; turizm bizning hayotimizga ta'sir ko'rsatishga, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tuzilishini o'zgartirishga qodir bo'lgan doimiy rivojlanayotgan va rivojlanayotgan tizimdir.

Turizmning iqtisodiy munosabatlar tizimiga bunday kuchli kirib kelishi mintaqaning iqtisodiy va xatto ijtimoiy tizimlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qilmasdan qolmaydi, bu ko'pincha bir-biri bilan chambarchas bog'liq, mamlakat ichida turizmning rivojlanishi esa ma'muriy, geografik va iqtisodiy bo'linish doirasining inkor etilishi bilan tavsiflanadi [5]. Darhaqiqat, turizm industriyasining rivojlanishi qabul qiluvchi mintaqada iqtisodiyotning tarkibini o'zgartiradi. Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida bunday o'zgarishlarni osongina birlashtirish mumkin bo'lsa-da, kam rivojlangan mamlakatda bunday jarayonning ta'siri yanada chuqurroq bo'lishi mumkin. Turizm sohasi rivojlanishida postmodernizm nazariyasining "muqobil rivojlanish" va "barqaror rivojlanish" konsepsiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning barqaror rivojlanishi tarafdorlari ommaviy va muqobil turizm rivojlantirish g'oyalarini inkor etmaydi. M.Movfort va I.Mant tomonidan turizmning barqaror rivojlanishga qo'shgan xissasi turizm sohasini rivojlantirish rejalaridagina aks etadi, amalda esa uning hissasi

unchalik yuqori emas deb hisoblashadi [3]. R.Sharpli turizmni barqaror rivojlantirish biz istagan rivojlanish biroq amaliyotda qo'llash mumkin bo'lmagan muqobillik deb hisoblaydi [4]. Turizmni rivojlantirishda atrof-muhit holatini mahalliy darajada hisobga olgan holda rejalashtirish lozim deb xisoblaydi. Modernizatsiyalash nazariyasi asosida rivojlanish bosqichlarida hordiq chiqarish, joylashtirish, ovqatlantirish kabi faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlarini ford model asosida amalga oshirishgan.

Xulosa qilib aytganda, turizm hududlar va mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasi sifatida turizm kapital oqimini jalb qiladi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, valyuta tushumlarini oshiradi hamda iqtisodiy faoliyatning faollashishiga xizmat qiladi. Turizm orqali shakllanadigan moliyaviy resurslar nafaqat bevosita ushbu sohaning rivojlanishiga, balki transport, savdo, qurilish va xizmat ko'rsatish kabi boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, turizmning multiplikativ ta'siri natijasida hududlarda pul mablag'larining aylanishi tezlashadi, mahalliy byudjet daromadlari ortadi va investitsiya jozibadorligi oshadi. Davlat tomonidan infratuzilmaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hamda turizm sohasiga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ushbu jarayonni yanada kuchaytiradi. Natijada turizm nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi soha, balki hududlarning barqaror moliyaviy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Tuxliyev N., Abdullayeva T. 2006. Национальные модели развития туризма. - "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". T.: Gos.nauch.uzd-vo - 424-b.*
2. *Александрова А.Ю. 2020. География туризма: учебник Москва: КноРус,. Т. - 73-75-b.*
3. *Mowforth, M. and Munt, I. 2015. Tourism and Sustainability: Development, Globalisation and New Tourism in the Third World (4th Edition). London: Routledge. 376-b.*
4. *Sharpley, R. 2009. Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability? London: Earthscan. 77-b.*
5. www.hozir.org veb-sayti.
6. www.wikipedia.org veb-sayti.
7. www.kun.uz veb-sayti.
8. www.uzbektourism.uz veb-sayti.
9. www.Meros.uz veb-sayti.